

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVAYSIYALAR VAZIRLIGI**

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**“TASDIQLAYMAN”**

**CHDPU rektori**

**G.I.Muxamedov**

**2023 yil**

**KASBIY (IJODIY) IMTIHON DASTURI VA  
BAHOLASH MEZONI**

**NOGIRON VA KO'ZI OJIZ ABITURIYEBTLAR UCHUN**

**“Cholg'u ijrochiligi va xonandalik mahorati”, “Musiqa nazariyasi  
va solfedjio” fanlari**

**60111300 - “Musiqa ta'limi”  
bakalavriat ta'lim yo'naliشining barcha shakllari uchun**

**CHIRCHIQ – 2023**

Dastur Chirchiq davlat pedagogika universiteti O‘quv-uslubiy Kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan. 2023 yil 26 06 dagi 19-sonli majlis bayoni.

**Tuzuvchilar:** CHDPU “Musiqa ta’limi” kafedrasi mudiri, dot.

Mahkamova Sh.R.

CHDPU “Musiqa ta’limi” kafedrasi katta o‘qituvchisi  
Muxitdinova M.S.

CHDPU “Musiqa ta’limi” kafedrasi katta o‘qituvchisi  
Xalilova M.M.

CHDPU “Musiqa ta’limi” kafedrasi katta o‘qituvchisi  
Asadullayeva M.A.

**Taqrizchilar:** Nizomiy nomidagi TDPU “Musiqa madaniyati”fakulteti dekani  
professor Lutfullayev A.Q.

CHDPU “Musiqa ta’limi” kafedrasi katta o‘qituvchisi  
Xo‘jamqulov P.

Dastur Chirchiq davlat pedagogika universitetida ishlab chiqilgan.

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**  
**Chirchiq davlat pedagogika universiteti**  
**60111300 - “Musiqa ta’limi”**  
**yo‘nalishi bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon o‘tkazish mezoni va dasturi**  
**(nogiron va ko’zi ojiz abituriyebtlar uchun)**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-iyuldagji 572-sonli  
qaroriga asosan

nogironligi bo‘lgan shaxslar alohida ajratilgan kvotalar doirasida, tanlangan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha tanlovda ishtirok etadi. Dasturda kasbiy (ijodiy) imtihonni o‘tkazish tartibi, abituriyentlarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yilgan talablar hamda ularni baholash mezonlari o‘z aksini topgan.

### **Kirish**

Musiqa ta’limi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi o‘rta maxsus va kasb-hunar kollejlari, bolalar musiqa va san’at maktablari hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining “Musiqa madaniyati” fani dasturi asosida tuzilgan bo‘lib, bakalavr darajasini olish uchun O‘zbekiston Respublikasi pedagogik oliy ta’lim muassasalariga kiruvchi abiturientlar uchun mo‘ljallangan.

Ushbu dastur “Cholg‘u ijrochiligi va xonandalik mahorati”, “Musiqa nazariyasi va solfedgio” fanlari asosida abiturientlarning musiqiy ta’lim sohasida nazariy va amaliy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va mahoratlarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

### **II. Ijodiy imtihonlarning maqsad va vazifalari**

60111300 - Musiqa ta’limi ta’lim yo‘nalishida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar abiturientlarning shu sohaga bo‘lgan qiziqishi, bilim darajasi va kelajakda musiqa ta’limi sohasi kasbida faoliyat yuritish kompetensiyalarini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan.

Mazkur ijodiy imtihonlarni o‘tkazishning asosiy vazifasi abiturientlarning boshlang‘ich musiqa savodi, biror bir cholg‘u asbobida ijro eta olish ko‘nikmasini, xonandalik mahoratini aniqlash, musiqa asarlari namunalarini bilish, o‘zbek va chet el ijodkorlari faoliyati, musiqa ijrochiligi, vokal, xor, an‘anaviy xonandalik mahoratini, ansambl, orkestr, bastakorlar va kompozitorlar ijodini, mashhur sozanda va xonandalar ijodiy faoliyatini, musiqiy atama va iboralarni, musiqa janrlari, musiqada zamonaviylik va an‘anaviylik tendensiyalarini, zamonaviy musiqa, milliy estrada musiqasi va uning ijrochilari kabi mavzular asosida milliy musiqa madaniyatimizni o‘zlashtirganlik darajasini aniqlashni va baholashni nazarda tutadi.

Bunda “Cholg‘u ijrochiligi va xonandalik mahorati” fanidan cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha biror bir cholg‘u asbobida o‘zbek yoki chel et musiqa asarlarini ijro eta olish ko‘nikmasini egallaganlik darajasi; ijro etayotgan musiqa asarini toza, sof hamda dinamik, temp va ritmik jihatdan aniq va to‘g‘ri ijro etishi; musiqa

cholg`usini chuqur his eta olishi; ritm, garmonik ohanglarni ijro etishda barmoq harakatlarini to`g`ri bajarishi; ijro etayotgan asarning muallifi, cholg`u asbobi turi, nomi, tarixi haqida hamda milliy cholg`ular to`g`risida aniq ma`lumotlarga egaligi. Xonandalik bo`yicha xonandalik janrlari; ijro etayotgan asarning nomi, muallifi, janri xususida bat afsil ma`lumotlarga ega ekanligi; ijroda sof intonatsion qoidalarga to`la amal qilishi, tonallikni ushlay olish ko`nikmasiga egaligi; tajribasi, ovoz, nafas va ularni ishlata olish mahorati, bu borada orttirgan tajribasi; vokal, xor, estrada, an`anaviy xonandalik asarlarini ijro eta olish mahorati, yo`llari, maktabi, tajribalari haqida bilimlarga egaligi; bastakor, kompozitorlar va ularning faoliyati, ular ijodida yuzaga kelgan musiqiy asarlarni bilishi;

“Musiqqa nazariyasi va solfedjio” fanidan mazkur fanda musiqiy tizim, tovush, nota yozuvi qonun-qoidalari, metr, ritm, temp, lad, tonallik, tonalliklar kvarta-kvinta doirasi, turli xil major va minor gammalar, xalq ladlari, interval,akkord, alteratsiya, xromatizm, tonalliklar pog`onadoshligi, modulyatsiya va og`ishma, transpozitsiya, kuy, musiqqa bezaklari xususida nazariy bilimlar; bir ovozli kuylarni, tovushdan va tonallikda major, minor hamda xalq ladlari tovushqatorlarini, xromatik gamma, turli xil interval vaakkordlarni yechilishlari bilan yozma ravishda va fortepianoda tuzib sof intonatsiyada kuylash, musiqqa elementlarini tinglab aniqlash ko`nikmalar, talab etiladi.

Shular bilan bir qatorda ijodiy imtihindan abiturientlar, avvalo, musiqqa san`atining inson hayotida tutgan o`rni va ahamiyati, yoshlarni aqliy, axloqiy, jismoniy va ma`naviy kamol topishidagi roli; milliy ong, milliy tafakkur, milliy g`urur, Vatanni sevish uni ardoqlash hislarini shakllantirishdagi ahamiyati haqida aniq tushunchaga ega bo`lishlari; musiqqa san`ati vositasida milliy g`oyani o`quvchi-yoshlar qalbiga singdirib borish yo`llarini tasavvur qila olishlari; Respublikamizning mustaqillik yillarda O`zbekistonda san`at va musiqiy ta`limni yuksak rivoj topganligi haqida asosli va mantiqli fikr-mulohaza yurita olishlari talab etiladi.

### **III. Abiturientning bilimiga qo`yiladigan talablar**

Abiturient cholg`u ijrochiligi va xonandalik mahoratini egallagan bo`lishi, uni namoyish eta olishi hamda musiqiy-nazariy bilimlarni hamda atama va tushunchalarni bilishi, musiqqa elementlarini kuylash va tinglab aniqlab berishi, notaga qarab kuylab berishi lozim.

Musiqqa ta`limi yo`nalishida maqomchilar ansambli (sozandalar, xonandalar), xalq cholg`ulari orkestri faoliyatini davom ettirish hamda fakultetda ijrochilik faoliyatini takomillashtirish maqsadida ajratilgan kvota o`rinlari foizidan kelib chiqib, mazkur yo`nalishda

#### **Cholg`u ijrochiligi bo`yicha:**

- 10 nafar - fortepiano cholg`usi,**
- 2 nafar - zarbli cholg`ular** (doyra,dovul va boshqalar),
- 2 nafar - damlama cholg`ular** (nay,surnay, qo`schnay),

- 2 nafar – kamonli cholg`ular** (g`ijjak, skripka),
- 4 nafar – mizroblı cholg`ular** (qashg`ar rubobi, tor, turk sozi),
- 4 nafar – dutor** (An`anaviy dutor, milliy dutor),
- 2 nafar** – tanbur, sato,
- 2 nafar** – ud, dutor bas,
- 2 nafar** – qonun, chang,

### Xonandalik ijrochiligi bo'yicha:

- 10 nafar – yigitlar ovozi** (An`anaviy iyro, akademik iyro),
- 10 nafar – qizlar ovozi** (An`anaviy iyro, akademik iyro) lar uchun talabalar qabul qilinishi nazarda tutilgan.

## IV. Ijodiy imtihon o'tkazish tartibi

Kasbiy ijodiy imtixon uchta fan doirsida o'tkaziladi, har bir fan bo'yicha abiturient bilimi va ijodiy mahoratiga alohida ball qo'yiladi. To'plagan ball natijalari umumlashtiriladi va ballar ketma-ketligida qabul komissiyasiga taqdim etiladi.

“Cholg`u ijrochiligi va xonandalik mahorati” fanlari bo'yicha iyro etilgan asarlar ro`yxati (repertuar), abiturient tomonidan yozma tarzda imzolangan xolda ijodiy imtihon komissiya raisiga topshiriladi.

“Musiqa nazariyasi va solfedjio” fani bo'yicha egallagan nazariy bilimlari yozma ish, diktant, tinglab kuylash, tinglab chalib berish, tinglab aniqlash kabi qator topshiriqlar asosida aniqlanadi.

Mazkur yo`nalishda test imtixonlari o'tkazilishi munosabati bilan – test imtihonlariga - 33 ball ajratilgan bo`lib shundan;

Kasbiy (ijodiy) kirish imtihonlarning umumiyligi bali – **156** balni tashkil etadi.

Jumladan:

- 1.“Cholg`u ijrochiligi va xonandalik mahorati” fanlari uchun – **104 ball**;
- 2.”Musiqa nazariyasi va solfedjio” fani uchun – **52 ball**.

## V. Kasbiy (ijodiy) imtihon mazmuni

### V. 1.1. Cholg`u ijrochiligi va xonandalik mahorati

#### a) Baholash mezonlari

Ushbu imtihonda abiturientdan musiqa asarining mazmuni, shakli, xarakteri va ijroviy murakkabligi bo'yicha turlicha bo`lgan uchta musiqa asarini iyro etishi talab etiladi. Shuningdek, qo'shimcha tarzida O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi kuyini chalib, kuylab berishi, O'zbekistonning mashhur kompozitorlari va taniqli bastakor-sozandalarini bilishi, mustaqillik yillarda respublikamizda musiqa san'atini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida o'z fikrlarini bayon etishi talab etiladi.

<b>№</b>	<b>Cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha ijro etiladigan asar janri va og‘zaki savol-javob mazmuni</b>	<b>Ballar taqsimoti</b>
1-asar	Yirik shakldagi asar (Maqom yo‘lidagi cholg‘u asarlari, Sonatina, Sonata, Variatsiya, Konsert va boshqalar)	0 - 15
1a. asar yuzasidan og‘zaki javob	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to`g`risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo‘llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati.	0 - 2
2-asar	O‘zbek xalq kuylari va bastakorlarning cholg‘u kuylari. Polifoniya (Invensiya, Fuga, Preljudiya va fuga, va boshqalar)	0 - 15
2a. asar yuzasidan og‘zaki javob	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to`g`risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo‘llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati	0 - 2
3-asar	O‘zbek o‘tmish bastakorlar asarlari, Pesa, etyud	0 - 10
3a. asar yuzasidan og‘zaki javob	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to`g`risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo‘llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati	0 - 2
4. Og‘zaki javob (kollokvium)	Musiqiy cholg‘ular tarixi va ularning xususiyatlari, cholg‘u musiqaning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rnini hamda ahamiyati to`g`risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo‘llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati.	0 - 6
<b>Jami</b>		<b>52</b>

**Izoh:** OTM kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi musiqiy cholg‘ular bilan ta`milash majburiyatini olmaydi. Abiturientlar ijro etadigan musiqa cholg‘usini o‘zi bilan birga olib keladi va sozlagan holda ijro etadilar. Kabiy (ijodiy) imtihon jarayonida kontsertmeyster jo`rligidan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi a`zolari o`zlarining ixtisoslik sohasidan kelib chiqqan holda abiturient bilimini baholaydi. Baholar umumlashgan holda e’lon qilinadi.

## b) Taxminiy asarlar ro`yhati

### Fortepiano:

1. Yirik shakldagi asarlar – N.Zakirov “Sonata”, F.Nazarov “Kontsert”, M.Klementi, L.Betxoven, Y.Gaydn, V.A.Motsart, F.Shubert, M.I.Glinka, A.K.Glazunov va boshqa chet el kompozitorlari sonatina, sonata va kontsertlari.

2. Polifonik asarlar – I.S.Baxning “Frantsuz syuitalari”, ikki va uch ovozli invensiyalari, XTK 1-tom prelyudiya va fugalari, shuningdek G.Gendel,

R.Shuman, M.I.Glinka, A.K.Glazunov, D.D.Shostakovich, G.Mushel kabi kompozitorlarning polifonik asarlari.

3. Pesa – F.Shopen, Y.Brams, F.List, E.Grigr, P.I.Chaykovskiy, S.Raxmaninov, M.Ashrafiy “So’zsiz qo’shiq”, X.Azimov “Noktyurn”, P.Xalikov “Dutor navolari” va boshqa asarlar, shuningdek K.Cherni, M.Klementi, I.Mosheles, F.Shopen va boshqa kompozitorlar etyudlari.

### **O‘zbek xalq cholg‘ularida:**

1. Yirik shakldagi asarlar – Maqom mushkulotlari, mumtoz cholg‘ u asarlari, o’tmish bastakorlar ijodidan namunalar, O‘zbekiston va chet el kompozitorlarining sonatina, sonata, kontsert v.b.

2. O‘zbek xalq kuylari – “Dugox”, “Segox”, “Yolg‘iz”, “Navruzi ajam”, “Rajabiy”, “Kushchinor”, “Tanova”, “Munojat” va b.

3. O‘zbekiston kompozitorlarining asarlari - F.Vasilev obrabotkasi “Dutor bayoti”, M.Bafoev “Poema”, F. Nazarov “Poema”si, D.Zakirov “Qo’shiq va raqs”, “Ko`rmadim” T.Jalilov, “Otmagay” va boshqalar.

## **V. 1.2. Xonandalik mahorati**

### **a) Baholash mezonlari**

Ushbu imtihonda abituriyentdan musiqa asarining mazmuni, shakli, xarakteri va ijroviy murakkabligi bo‘yicha turlicha bo‘lgan uchta musiqa asarini kuylab berishlari talab etiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasini kuylab berishi, O‘zbekistonning mashhur kompozitorlari va taniqli bastakorsozandalarini bilish va mustaqillik yillarda respublikamiz san`atini yanada rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida o‘z fikrini bayon etishi talab etiladi.

<b>Nº</b>	<b>Xonandalik mahorati bo‘yicha ijro etiladigan asar janri va og‘zaki savol-javob</b>	<b>Ballar taqsimoti</b>
1-asar	Maqom, an‘anaviy xonandalik, o‘zbek va chet el kompozitorlarining ariya, romans, estrada qo’shiqlari	0 - 15
1a. asar yuzasidan og‘zaki javob	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va kompozitor//bastakori to‘g‘risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo’llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik mahorati	0 - 2
2-asar	Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-, 6-, 7- sinf “Musiqa madaniyati” fani dasturidan o‘rin olgan qo’shiqlardan namunalar	0 - 15
2a. asar yuzasidan og‘zaki javob	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va kompozitor//bastakori to‘g‘risidagi bilimlari nutqi (maxsus atamalar qo’llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik mahorati	0 - 2
3-asar	O‘zbek o’tmish bastakorlar ijodi namunalari (T.Jalilov, Y.Rajabiy, S.Kalonov, D.Zokirov va boshqalar), O‘zbek	0 - 10

	va chet el xalq qo'shiqlari	
3a. asar yuzasidan og'zaki javob	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to'g'risidagi bilimlari nutqi (maxsus atamalar qo'llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyat	0 - 2
4. Og'zaki javob (kollokvium)	Xonandalik tarixi, ularning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va ahamiyati hamda o'zbek va chet el kompozitor (bastakor)lari to'g'risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo'llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati.	0 - 6
<b>Jami</b>		<b>52</b>

**Izoh:** Abiturientlar xonandalik fanidan kasbiy (ijodiy) imtihon vaqtida o'zi ixtiyoriy cholg'u asbobida chalib ijro qilishi mumkin. Abiturientlarning iqtidorini va ijodiy qobiliyatini baholash shaffofligini ta'minlanish uchun kasbiy (ijodiy) imtihon jarayonida kontsertmeyster jo'rligidan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi a'zolari o'zlarining ixtisoslik sohasidan kelib chiqqan holda abiturient bilimini baholaydi. Baholar umumlashgan holda e'lon qilinadi.

Xuddi shuningdek, "Cholg'u ijrochiligi va xonandaligi" fani bo'yicha xonandalik asarlari a'lohida va cholg'u ijrochiligi bo'yicha ijro etilgan asarlar a'lohida ijro etiladi, va umumiyligi 96 ball hisobidan baholanidi. Baholar qaydnomada aks ettiriladi.

### b) Taxminiy asarlar ro'yxati

- Shashmaqom, Chormaqom, Xorazm maqomlari tarkumlari, O'tmishtan bastakorlar ijodi namunalari, Mumtoz ashulalar, O'zbek va chet el kompozitorlari operalaridan ariya, romans, estrada qo'shiqlari.
- Umumta'lim maktabining 5-, 6-, 7- sinf musiqa madaniyati fani dasturidan o'rinni o'rgan qo'shiqlari.
- O'zbek va chet el xalq qo'shiqlari – "Omon yor", "Tanova", alla, to'y marosim qo'shiqlari, yalla, lapar va h.

## V. 2. Musiqa nazariyasi va solfedjio

### a) Baholash mezonlari

Musiqiy tovush va uning xususiyatlari, musiqliy tizim tovushqatori. Musiqaviy soz, temperatsiyalangan soz. Tovushlarning harfiy tuzilmada ifodalananishi. Tovushlar, interval,akkordlar engarmonizmi. Nota yozuvsi, nota cho'zimlari va ularga qo'yiladigan tovushlar cho'zimini uzaytiruvchi qo'shimcha belgilari, nota yozuvini qisqartirish belgilari. Metr, Ritm, sinkopa, cho'zimlarning turkumlanishi. Oddiy, Murakkab, Aralash va o'zgaruvchan metrlar va o'lchovlar. Oddiy va tarkibli intervalllar. Diatonik va Xromatik intervalllar. Intervallarning engarmonik

tengligi. Intervallarning aylanishi. Ohangdosh (konsonans) va noohangdosh (dissonans) intervallar. Alteratsiya. Lad. Tonallik. Turg'un va noturg'un tovushlar hamda ularning yechilishi. Major va minor ladi. Uchtovushlik va ularning aylanmalari. Septakkord va ularning aylanmalari. Og'ishma, modulyatsiya, transpozitsiya kabi mavzulardagi nazariy materiallarni bilish. Major, minor, xalq ladlari tovushqatorlari, intervallar, uchtovushliklar va septakkordlar hamda ularning aylanmalarini berilgan tovushdan va ko'rsatilgan tonallikda tuzib va kuylab berish. Kalmikov va Fridkin "Birovozli solfedjio" o'quv qo'llanmasidan berilgan kuy misolini notaga qarab kuylash. Interval,akkord,lad tovushqatorlarini tinglab aniqlash.

<b>№</b>	<b>Musiqa nazariyasi (solfedjio) vazifalar turlari</b>	<b>ballar taqsimoti</b>
1.	Nazariy materiallarni bilish.	0 - 14
2.	Major, minor, xalq ladlari tovushqatorlari, intervallar, uchtovushliklar va septakkordlar hamda ularning aylanmalarini berilgan tovushdan va ko'rsatilgan tonallikda tuzish va kuylash	0 - 14
3.	Takt hissalarini qo'l harakatini ko'rsatib kuy misolini notaga qarab kuylash	0 - 14
4.	Tinglab aniqlash	0 - 10
<b>Jami</b>		<b>52</b>

## **VI. Ijodiy imtihonlar natijalarining baholash mezoni**

### **VI. 1. Cholg'u ijrochiligi va vokal xonandaligi**

<b>Baholash kategoriyasi</b>	<b>Baholash mezoni</b>	<b>1-asar uchun ball</b>	<b>2-asar uchun ball</b>	<b>3-asar uchun ball</b>	<b>4-javob uchun ball</b>
<b>Cholg'u ijrochiligi</b>					
1-“A’lo”	Asar ijrosi yorqin va maromiga yetkazilgan, texnik jihatdan mukammal va badiiy jihatdan ifodalii. Og`zaki javobi to`laqonli	<b>13-15</b>	<b>13-15</b>	<b>8-10</b>	<b>5-6</b>
2-“Yaxshi”	Asar ijrosi bir oz kam yorqin bo`lib, badiiy jihatdan to`g`ri, ammo texnik jihatdan mukammal bo`lib, ayrim noaniqliklarga yo`l qo`yilgan. Og`zaki javobi to`liqsiz.	<b>10-12</b>	<b>10-12</b>	<b>5-7</b>	<b>3-4</b>
3-“Qoniqarli”	Cholg'uda ijro etish ko`nikmalari sust, nota matni noto`g`ri yodlangan Og`zaki javobi to`liqsiz va ayrim noaniqliklari bilan.	<b>7-9</b>	<b>7-9</b>	<b>3-4</b>	<b>1-2</b>
4-	Asar ijrosi yoddan emas, yoki	<b>0-6</b>	<b>0-6</b>	<b>0</b>	<b>0</b>

“Qoniqarsiz”	cholg`uda ijro etish ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlanmagan.				
	Og`zaki javobi sust yoki yo`qligi	1	1	1	-
<b>Xonandalik mahorati</b>					
1- “A’lo”	Asar ijrosi yorqin va maromiga yetkazilgan, intonatsion jihatdan aniq, toza va ifodali.	13-15	13-15	8-10	5-6
	Og`zaki javobi to`laqonli	2	2	2	-
2-“Yaxshi”	Asarni badiiy ijro etishda yorqinligi bir oz kamroq, tenik ijro jihatidan meyoriga yetmagan, ayrim noaniq intonatsiyalar mavjud	10-12	10-12	6-7	3-4
	Og`zaki javobi to`liqsiz.	1,5	1,5	1,5	-
3-“Qoniqarli”	Kuylash ko`nikmalari sust, ijrosi noaniq (falsh), tonallikda turmaslik, nota matni noto‘g‘ri yodlangan	7-9	7-9	4-5	2-3
	Og`zaki javobi to`liqsiz va ayrim noaniqliklari bilan.	1	1	1	-
4-“Qoniqarsiz”	Asar ijrosi yoddan emas, intonatsiya falsh (musiqiy eshitish qobiliyati yo‘qligi) yoki ijro etib bera olmasligi.	0-5	0-5	0	0
	Og`zaki javobi sust yoki yo`qligi.	1	1	1	-

## VI. 2. Musiqa nazariyasi va solfedjio

Nº	Baholash mezoni	1-vazifa	2-vazifa	3-vazifa	4-vazifa
1-“A’lo”	Vazifaning to`liq bajarilishi, intonatsiyasi aniq, toza, sof.	12-14	12-14	12-14	8-10
2-“Yaxshi”	Vazifaning ayrim noaniqliklar bilan bajarilishi, intonatsiya ayrim joylarda aniq emasligi (falsh).	10-12	10-12	10-12	5-7
3-“Qoniqarli”	Materialni sust bilishi, intonatsiya ayrim joylarda aniq emasligi (falsh), lekin javob berish jarayonida intilish va qiziqishlari mavjudligi.	8-10	8-10	8-10	3-4
4-“Qoniqarsiz”	Materialni bilmasligi, intonatsiya aniq emasligi (falsh)	0-7	0-7	0-8	0-2

## VII. Ko`zi ojiz abiturientlarning kasbiy (ijodiy) imtihon natijalarini baholash mezoni

Yuqorida ta’kidlanganidek 60111300 - “Musiqa ta’limi” yo‘nalishi bo‘yicha o’tkaziladigan ijodiy imtihon dasturiga ko‘ra shu yo‘nalishga oid bo‘lgan cholg‘u

asbobida asar ijro etish, qo'shiq kuylash, musiqa nazariyasi va solfedjio fanlaridan abiturientlarning bilim, malaka va ko'nikmalarini aniqlash talablari kiritilgan.

Har bir ko'zi ojiz abiturient ijodiy imtihon yakuni bo'yicha jami 5 baho toplash imkoniga ega. To'planadigan baho predmetlar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

- a) Cholg'u ijrochiligi – 5 baho;
- b) Qo'shiq kuylash – 5 baho;
- c) Musiqa savodxonligi – 5 baho;
- d) Solfedjio – 5 baho.

Umumiy 5 bahoning 2 va undan past bahoga baholangan abiturientlar o'qishga tavsiya etilmaydi.

### **Ijodiy imtihon predmetlari bo'yicha belgilangan ballar taqsimoti**

Baho	Abiturientning bilim darajasi baholanishida quyidagilar e'tiborga olinadi
5 (a'lo)	Musiqiylar ta'lim bo'yicha barcha dasturdagi belgilangan asarlar ifodali, to'liq va mukammal, mahorat bilan ijro etilsa, ijodiy fikrlay olishi, qo'shiq kuylash bo'yicha 2 ta turli xarakterdagi va keng diapazondagi (ovozi kengligini va kuchini namoyish etish uchun) qo'shiq ijro etilishi, Cholg'uda ijro tekis, ijro qoidalariga rioya qilib badiiy jihatdan mahorat bilan bajarilsa, berilgan dasturdagi vazifalarni nazariy va amaliy tomondan to'g'ri hamda to'liq bajarilganligi, solfedjioni o'qish va kuylash mahorati yuqori bo'lsa.
4 (yaxshi)	Musiqiylar ta'lim bo'yicha barcha dasturdagi belgilangan asarlar ifodali ijro etilsa. Cholg'uda ijro tekis, ijro qoidalariga rioya qilishdan chekinsa, badiiy jihatdan mahorat bilan bajarilsa, berilgan dasturdagi vazifalarni nazariy va amaliy tomondan to'g'ri bajarilsa, Solfedjioni o'qish va kuylash mahorati yetarli bo'lsa.
3 (qoniqarli)	Cholg'uda ijro uchun tanlangan asarlar biroz sodda va bir xil turdag'i (xarakterdagi) asarlar bo'lsa, ijro badiiy jihatdan nisbatan sayozroq ijro etilsa, ijroda so'zlar yoddan aytib berilmasa, kuy ohangda va badiiylikda xatoliklarga yo'l qo'yilsa.
2 (qoniqarsiz)	Cholg'uda ijro qilingan asar matnidan chekinish, xatolarga yo'l qo'yilsa, badiiy tomonidan mazmunini yetkazib ijro eta olmasa, asar ijrosida matndan, sur'atdan chiqib ketish va badiiy ijroda xatolikka yo'l qo'yilsa va ifodasiz ijro etilsa.

### **VII. Apellyatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish**

Apellyatsiya komissiyasi kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi faoliyatini yo'lga qo'yilishi bilan bir paytda 2023-2024 o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Abiturient kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari e'lon qilingan kundan boshlab, 24 soat ichida apellyatsiya komissiyasiga murojaat etishi shart. Aks holda ko'rsatilgan muddatdan o'tib qilingan murojaat inobatga olinmaydi.

Apellyatsiya komissiyasi abiturientlar tomonidan bildirilgan og'zaki va yozma murojaatlarga javob beradi.

Abiturient tomonidan bildirilgan murojaatni ko'rib chiqadi va 24 soat ichida xulosalarni ma'lum qiladi.

**Abiturient \_\_\_\_\_ ning  
Cholg'u ijrochiligi bo'yicha taqdim etgan cholg'u asarlari bo'yicha to'plagan  
ballari**  
**QAYDNOMASI**

	<b>Cholg'u ijrochiligi bo'yicha ijro etiladigan asar janri va og'zaki savol-javob mezoni</b>	<b>Taqdim etilgan asar va uning ijro holati (yoziladi)</b>	<b>Ball taqsimoti</b>	<b>To'plag an bali</b>
1.	Yirik shakldagi asar (Maqom yo'lidagi cholg'u asarlari, Sonatina, Sonata, Variatsiya, Konserst va boshqalar)		0 - 15	
1a	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to'g'risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo'llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati.		0 - 2	
2.	O'zbek xalq kuylari va bastakorlarning cholg'u kuylari. Polifoniya (Invensiya, Fuga, Prelyudiya va fuga, va boshqalar)		0 - 15	
2a	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to'g'risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo'llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati		0 - 2	
3.	O'zbek o'tmish bastakorlar		0 - 10	

	asarlari, p`esa, etyud			
3a	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to`g`risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo`llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati		0 - 2	
4.	Musiqiy cholg`ular tarixi va ularning xususiyatlari, cholg`u musiqaning ijtimoiy hayotda tutgan o`rni hamda ahamiyati to`g`risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo`llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati.		0 - 6	
<b>Jami</b>			<b>52</b>	

### Ijodiy imtihon komissiyasi:

Abiturient:

**Abiturient \_\_\_\_\_ ning  
Xonandalik mahorati bo`yicha taqdim etgan asarlari yuzasidan to`plagan  
ballari**  
**QAYDNOMASI**

	<b>Xonandalik bo`yicha ijro etiladigan asar janri va og`zaki savol-javob mezoni</b>	<b>Taqdim etilgan asar va uning ijro holati (yoziladi)</b>	<b>Ball taqsimoti</b>	<b>To`plagan bali</b>
1.	Maqom, an`anaviy xonandalik, o`zbek va chet el kompozitorlarining ariya, romans, estrada qo`shiqlari		0 – 15	
1a	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va kompozitor//bastakori to`g`risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo`llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik mahorati		0 - 2	
2.	Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 5-, 6-, 7- sinf “Musiqa madaniyati” fani dasturidan o`rin olgan qo`shiqlardan namunalar		0 - 15	
2a	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va kompozitor//bastakori to`g`risidagi		0 - 2	

	bilimlari nutqi (maxsus atamalar qo'llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik mahorati			
3.	O'zbek o'tmish bastakorlar ijodi namunalari (T.Jalilov, Y.Rajabiy, S.Kalonov, D.Zokirov va boshqalar), O'zbek va chet el xalq qo'shiqlari		0 - 10	
3a	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to'g'risidagi bilimlari nutqi (maxsus atamalar qo'llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyat		0 - 2	
4	Xonandalik tarixi, ularning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va ahamiyati hamda o'zbek va chet el kompozitor (bastakor)lari to'g'risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo'llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati.		0 - 6	
<b>Jami</b>			<b>52</b>	

**Ijodiy imtihon komissiyasi:**

**Abiturient:**

**Abiturient \_\_\_\_\_ ning**

**Musiqa nazarisi fanidan baholash mezonlari asosida to'plagan ballari  
QAYDNOMASI**

<b>Nº</b>	<b>Musiqa nazariyasi (solfedjio) vazifalar turlari</b>	<b>Topshirqlarga abiturient tomonidan berilgan javoblar (yoziladi)</b>	<b>Ballar taqsimoti</b>	<b>Abiturient to'plagan ballar</b>
1.	Nazariy materiallarni bilish		0 - 14	
2.	Major, minor, xalq ladlari tovushqator-lari, intervallar, uchtovushliklar va septakkordlar		0 - 14	

	hamda ularning aylanmalarini berilgan tovushdan va ko`rsatilgan tonallikda tuzish va kuylash			
3.	Takt hissalarini qo`l harakatini ko`rsatib kuy misolini notaga qarab kuylash		0 - 14	
4.	Tinglab aniqlash		0 - 10	
<b>Jami</b>			<b>52</b>	

**Ijodiy imtihon komissiyasi:**

**Abiturient:**